

Jamoatchilik kengashi majlisining navbatdagi

1 -son BAYONI

2024-yil 17-yanvar

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: X.R. Mamasaidov – vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi
Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a'zolari (ro'yxat bo'yicha).

KUN TARTIBI:

Jamoatchilik kengashining 2024-yilga mo'ljallangan ish reja loyihasi to'g'risida

(X.Mamasaidov, M.Boboyorov, I.Bakirova, N.Mamaraimova, X.Mamasaidov)

Jamoatchilik kengashi raisi tomonidan so'nggi yillarda Muhtaram yurtboshimiz rahbarligida maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga alohida e'tibor qaratilayotganligi, ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarda zamonaviy bilim va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, o'qituvchilar salohiyatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan tizimli ishlar xususida batafsil to'xtalib o'tildi.

Yig'ilishda Jamoatchilik kengashining 2024-yilga mo'ljallangan ish reja loyihasi bo'yicha bildirilgan takliflar hamda kengash tarkibiga kiritish uchun tavsiya etilgan nomzodlar muhokama etildi.

Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish natijasi bo'yicha yig'ilish **qaror qiladi:**

1. Kengash raisi X.Mamasaidovning respublikamizda maktabgacha va maktab ta'limi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2024-yil ish reja loyihasi va kengash tarkibiga kiritish uchun tavsiya etilgan nomzodlar to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Vazir maslahatchisi (N.Mamaraimova) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son Farmoni 3-ilovasiga muvofiq kengash tarkibida nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining ishtirokini kengaytirishni;

Jamoatchilik kengashining 2024-yilga mo'ljallangan ish reja loyihasini kengash a'zolari tomonidan yig'ilish davomida bildirilgan takliflarni inobatga olgan holda shakllantirishni ta'minlasin.

Yig'ilish kotibi



N.Mamaraimova